

Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)

2018 yil yanvar-sentyabr

RAQAMLAR:


- 2018 yil yanvar-sentyabr oylarida bozor xizmatlari hajmi 2272,2 mlrd.so'mni tashkil etdi.
- Moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati 144,9 % ni tashkil etdi.
- Savdo xizmatlari ulushi ko'rsatilgan umumiy xizmatlar hajmida 37,1 % ni tashkil etdi.
- Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 1702,2 ming.so'mni tashkil etdi.

Hozirgi vaqtda xizmat ko'rsatish sohasi rivojlanish darajasi jamiyatning ilg'or rivojlanishining mezoniga aylandi.

Xizmat ko'rsatish tizimini takomillashtirish va modernizatsiya qilish aholining turmush darajasini, investitsion muhitini, ishbilarmonlik muhitini va biznesni rivojlantirishni yaxshilaydi.

Viloyatda amalga oshirilgan islohotlar ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati 14,4 foizga oshishiga olib keldi. 2018 yil yanvar-sentyabr oylarida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 2272,2 mlrd.so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmida eng katta ulush savdo xizmatlari (37,1 %), transport xizmatlari (18,7 %), moliyaviy xizmatlar (14,1 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (6,6 %) tashkil etadi.

2018 yil yanvar-sentyabr oylarida xizmatlar tarkibi,%




2018 yil yanvar-sentyabr oylarida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 2272,2 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 114,4 % ni tashkil etdi.

2018 yil yanvar-sentyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar ishlab chiqarish hajmi

	Hajmi, mlrd.so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xizmatlar - jami	2272,2	114,4
shu jumladan:		
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	150,2	113,4
moliyaviy xizmatlar	320,7	144,9
transport xizmatlari	425,2	104,3
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	408,7	103,4
yashash va ovqatlanish xizmatlari	71,0	108,6
savdo xizmatlari	842,2	113,2
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	61,4	102,0
ta'lim sohasidagi xizmatlar	90,2	128,0
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	39,4	125,9
ljara xizmatlari	58,1	120,9
kompyuterlar va ma'shiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	70,8	105,0
shaxsiy xizmatlar	68,2	102,7
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	18,2	121,0
boshqa xizmatlar	56,6	106,3

O'tgan yilning mos davriga nisbatan savdo xizmatlari (135,9 mlrd. so'm), transport xizmatlari hajmi (235,6 mlrd. so'mga), moliyaviy xizmatlar (124,1 mlrd. so'm), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (19,2 mlrd.so'm), ta'lim xizmatlari (26,5 mlrd.so'm) oshganligi kuzatildi.


2018 yil yanvar-sentyabr oylarida alohida xizmat turlari hajmining taqqoslanishi, %



Xizmatlar hajmining nisbatan sezilarli bo'lmagan holda oshishi ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar bo'yicha kuzatildi. Ularning hajmi 2017 yil yanvar-sentyabr oylariga nisbatan 2,1 mlrd.so'mga oshdi.

Eng yuqori o'sish sur'atlari moliyaviy xizmatlar (144,4 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (128,0 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (125,9 %) me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (121,0 %), ijara xizmatlari (120,9 %), kabi xizmat turlarida qayd etildi.

2018 yil yanvar-sentyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



Nisbatan pastroq o'sish sur'atlari ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (102,0 %), shaxsiy xizmatlar (102,7 %), transport xizmatlari (104,3 %), kabi xizmat turlarida kuzatildi.

Jami moliyaviy xizmatlar hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi (90,6 %) etakchilik qilmoqda.

2018 yil yanvar-sentyabr oylarida moliyaviy xizmatlarning tarkibi, %



Sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning asosiy qismini pul-kredit sohasida vositachilik xizmatlari (97,4 %) tashkil etadi.


2018 yil yanvar-sentyabr oylarida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning tarkibi, %



Bugungi kunda savdo-sotiq iste'mol bozoriga bo'lgan talabni shakllantirish jarayonining faol ishtirokchisiga aylandi. Savdo xizmatlari iqtisodiyotda ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining sezilarli qismini tashkil qiladi.

2018 yil yanvar-sentyabr oylarida savdo xizmatlari hajmi 842,2 mlrd.so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi 37,1 % ni tashkil etdi.

2018 yil yanvar-sentyabr oylarida savdo xizmatlari tarkibi, %



Savdo xizmatlari tarkibiga avtomobillar va mototsikllardan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega bo'lib, uning ulushi 79,9 % ni tashkil etadi.

Ulgurji savdo xizmatlarining (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi 15,8 % ni tashkil etdi.

Avtomobil va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, avtomobil va mototsikllarni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda umumiy savdo xizmatlarining 4,3 % ni tashkil qiladi.


**2018 yil yanvar-sentyabr oylarida hududlar bo'yicha
ko'rsatilgan xizmatlar hajmi**

	Hajmi, mlrd.so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Jizzax viloyati	2272,2	114,4
Jizzax shahri	1238,7	118,4
tumahlar		
Arnasoy	39,9	108,4
Baxmal	92,3	109,2
G'allaorol	145,7	109,8
Sh.Rashidov	197,1	110,8
Do'stlik	139,1	110,8
Zomih	114,1	110,2
Zarbdor	50,3	109,1
Zafarobod	29,4	109,5
Mirzacho'l	62,1	108,9
Paxtakor	82,7	111,2
Forish	64,4	110,9
Yangiobod	16,4	108,4

Hududlar o'rtasida Jizzax shahri (1238,7 mlrd.so'm) etakchilik qilmoqda. O'tgan yilning mos davriga nisbatan, ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati Jizzax shahri bo'yicha 118,4 % ni tashkil etdi.

Jizzax shahrida yuqori o'sish sur'atining ta'minlanishi birinchi navbatda aholi real daromadlarining oshishi, yakuniy iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish tarmoqlarining rivojlanishi bilan bog'liqdir. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida Jizzax shahrining ulushi 54,6 % ni tashkil etadi.

2018 yil yanvar-sentyabr oylarida hududlar bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati va ulushi, %




Yuqori o'sish sur'atlari Jizzax shahrida (118,4 %), Paxtakor (111,2 %) Sh.Rashidov va Do'stlik (110,8 %) tumanlarida kuzatildi. Yuqori bo'lmagan o'sish sur'atlari Yangiobod va Arnasoy (108,4 %), Mirzacho'l (108,9 %), Zarbdor (109,1 %) tumanlarida kuzatildi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida eng kichik ulush Yangiobod tumanida (0,7 %) qayd etildi.

2018 yil yanvar-sentyabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 1702,2 ming.so'mga teng bo'ldi. 2017 yil yanvar-sentyabr oylariga nisbatan aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 333,6 ming.so'mga oshdi.

2018 yil yanvar-sentyabr oylarida hududlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatkichlar



Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Jizzax shahrida - 7172,4 ming so'm qayd etildi.